

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Sh. T.Axmadjonova</b>	Interpretation of the study of speech styles in uzbek linguistics.....	983
<b>Sh. T.Axmadjonova</b>	A study on the characteristics and types of public speaking in english.....	986
<b>Sh. Sh.Dadabayeva</b>	Expression of comparative relation in language.....	990
<b>N.X.Alieva</b>	Evolution of new phraseological units in the era of digitization.....	997
<b>I.M.Jo'rayev</b>	Jadid adabiyotida oila va jamiyat taqdiri masalasi.....	1001
<b>O.Q.Xasanova</b>	Til o'rganuvchilarning xatolarini to'g'rilashda o'yinlardan foydalanishning didaktik ahamiyati.....	1005
<b>И.Ф.Порубай</b>	Рассмотрение языка сферы автоспорта как профессионального языка.....	1010
<b>D. Sh.Rasulova, N.R.Gafurova</b>	Gender study of forms of references in english languages.....	1019
<b>N.R.Gafurova, O'.I.Xomidova</b>	Linguistic and cultural analysis of lexemes expressing tradition in english and uzbek languages.....	1023
<b>I.M.Qo'chqarov</b>	Methods of teaching english.....	1028
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	Nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'rashning semiotik xususiyatlari (Elektron xatlar misolida).....	1031
<b>Z.M.Xalilova</b>	Tilshunoslikda "Oila/Family" konseptining o'rganilishi.....	1036
<b>G.R.Tashmatova</b>	Роль интеграции предметного содержания и иностранного языка в формировании иноязычной коммуникативной компетенции студентов высших учебных заведений.....	1040
<b>Sh.A.Nuraliyeva</b>	Navoiyshunoslik taraqqiyotida Oybek ijodining o'rmi.....	1044
<b>Z.M.Abdullayev</b>	Antroponimlarning egalik shakllari bilan qo'llanilishining etnolingvistik xususiyatlari (O'zbek va Nemis tillari antroponimlari misolida).....	1047
<b>N.Z.Axmadjonov</b>	Nutq aktlari va ularning klassifikatsiyasi.....	1050
<b>D.X.Madazizova</b>	Badiiy va turistik-reklama diskursida kontaminatsiya imkoniyatlari.....	1055
<b>R.U.Axrorova</b>	«Yosh» tushunchasining lingvistik talqini.....	1059
<b>R.U.Axrorova, L.B.Ikromova</b>	Adabiy asarlarda maqollarning o'rmi.....	1064
<b>A.Mamatova</b>	Nemis tilida frazemalarning turli ma'noda qo'llanilishi.....	1069
<b>A.Mamatova</b>	Nemis tilida frazemalarning milliy-madaniy xususiyatlarining nutqiy tasnifi.....	1074
<b>Sh.O.Abdiloyev</b>	Nemis va tojik tillarida frazeologik birliklarni tasniflash masalasi haqida.....	1078
<b>N.Q.Adamboeva</b>	Xushmuomalalik kategoriyasini aksiolingvistik jihatdan tasniflash nazariyasi.....	1083
<b>T.Z.Mingboyeva</b>	The effects of societal expectations on character development in Jack London's novels.....	1087
<b>D.R.Ubaydullayeva, F.S.Abduvaliyeva</b>	Omga oldida nutq qilishdagi qo'rquv sabablari va yechimlari.....	1091
<b>R.A.Ortiqov</b>	Роль и значение компьютерных игр в образовании.....	1095



UO'K: 810.512.133-115+811.112-116

**NEMIS TILI BIZNES NUTQIY AKTIDA KECHIRIM SO'RASHNING SEMIOTIK XUSUSIYATLARI (ELEKTRON XATLAR MISOLIDA)****СЕМИОТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИЗВИНЕНИЯ В НЕМЕЦКОМ ЗАКОНЕ О ДЕЛОВОЙ РЕЧИ (НА ПРИМЕРЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ПИСЕМ)****SEMIOTIC FEATURES OF APOLOGY IN A GERMAN BUSINESS SPEECH ACT (EXAMPLE OF EMAILS)****Axmadjonov Nurbek Zokirjon o'g'li** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,

**Annotatsiya**

Maqolada nemis tili biznes nutqiy aktida kechirim so'zining ishlatilishini semiotik jihatlari o'rganilgan. Tadqiqot materiali nemis biznes kompaniyalarining shaxsiy yozma xatlaridan to'plangan nemis tili biznes elektron pochta aloqalaridagi misollarga asoslangan. Biznes elektron pochta xatlarida kechirim so'rash so'zi pragmatik nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi va sotsiativ nutq akti sifatida taqin etiladi. Kechirim so'rash muloqotning muhim ajralmas qismi sifatida tushuniladi. Kechirim so'rash nemis tilidagi kommunikativ amaliyotda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish uchun, shuningdek, biznes muloqot jarayonida qasddan yoki beixtiyor odob-axloq qoidalarini va axloqiy me'yorlardan xabardor bo'lgan holda qo'llaniladi. Boshqa tillarda bo'lganidek nemis tilida ham biznes nutqiy aktida uzr so'rash orqali kompaniyaning obro'sini tiklash motivini faollashtiradigan o'ziga xosliklar mavjud. Nemis biznes nutqiy aktlarining elektron xatlarida "uzr so'rash" nutqiy akti semiotik jihatdan uchta pozitsiyada o'rganiladi: pragmatik, semantik va sintaktik. Nemis tilida "kechirim so'rash" nutqiy akti ziddiyatni yumshatishga xizmat qiladigan o'zaro nutq harakatlariga asoslangan.

Ishimizda muloqotning ijobiy natijasiga erishishga yordam beradigan taktikalar - yarashuv taktikasi, sharhlash taktikasi, aybni tan olish taktikasi ko'rib chiqildi.

**Аннотация**

В статье рассматриваются семиотические аспекты употребления слова извинить в немецком деловом речевом акте. Материал исследования основан на примерах деловой электронной почты на немецком языке, собранных из личной переписки немецких деловых компаний. Извинения в деловых электронных письмах изучаются с позиций прагматической лингвистики и интерпретируются как социальные речевые акты. Извинение понимается как важная неотъемлемая часть общения. Извинение используется в немецкой коммуникативной практике для регулирования межличностных отношений, а также в процессе делового общения, намеренно или непреднамеренно, для осознания этикета и моральных норм. Как и в других языках, в немецком языке имеются особенности делового речевого акта, активизирующие мотивацию восстановления репутации компании путем извинения. Речевой акт «извинение» в немецком деловом электронном письме семиотически изучается в трех позициях: прагматической, семантической и синтаксической. В немецком языке речевой акт «извинения» основан на взаимных речевых актах, которые служат разрядке конфликта. В нашей работе были рассмотрены тактики, помогающие добиться положительного результата общения – тактика примирения, тактика интерпретации, тактика признания вины.

**Abstract**

The article examines the semiotic aspects of the use of the word sorry in the German business speech act. The research material is based on examples of German language business e-mails collected from personal correspondence of German business companies. Apologies in business e-mails are studied from the perspective of pragmatics and interpreted as social speech acts. Apology is understood as an important integral part of communication. Apology is used in German communicative practice to regulate interpersonal relationships, as well as in the process of business communication, intentionally or unintentionally, to be aware of etiquette and moral standards. As in other languages, in German there are peculiarities in the business speech act that activate the motivation to restore the company's reputation by apologizing. The speech act of "apology" in a German business e-mail is semiotically studied in three positions: pragmatic, semantic and syntactic. In German, the speech act of "apologising" is based on reciprocal speech acts that serve to defuse conflict. In our work, tactics that help to achieve a positive result of communication were considered - tactics of reconciliation, tactics of interpretation, tactics of admitting guilt.

*Kalit so'zlar:* nutq akti, kechirim so'rash, semiotik jihat, semantika, pragmatika, sintaktik, taktika

*Ключевые слова:* речевой акт, извинение, семiotический аспект, семантика, прагматика, синтаксис, тактика.

*Key words:* speech act, apology, semiotic aspect, semantics, pragmatics, syntactic, tactics.

## KIRISH

Nemis madaniyatida kechirim so'rash muloqotning muhim ajralmas qismi sifatida qaraladi. Nemis tilida muloqot amaliyotda turli sabablarga ko'ra qasddan yoki qasddan bo'lmagan odob-axloq qoidalari, axloqiy me'yorlar va maqsadlardan xabardor bo'lgan holda shaxslararo munosabatlarni tartibga solish uchun kechirim so'rash ishlatiladi. Kechirim so'rash xushmuomalalik me'yorlarini bilish va ularning buzilishi, shuningdek, munosabatlarni tiklash muhim signal sifatida qaraladi. Xushmuomalalik toifasi odob-axloq dialogini o'rnatib, bu stereotip va vaziyat bilan ajralib turadi. Kommunikativ nuqtayi nazardan kechirim so'rash - bu ikki kishi ishtirok etadigan muloqot modeli bo'lib, ular o'zining og'zaki yoki yozma ravishda boshqasiga nutq orqali zarar yetkazganligini tushunishi, shuningdek, o'z aybini to'liq tan olishi tushuniladi. Ikkinchi muloqotchi, odob-axloq qoidalariga muvofiq og'zaki javob berishi va uzrni qabul qilishi nutqiy harakatning odob-axloq darajasini ajratib ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ko'p sonli matnlar til jamiyati a'zolarining o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi nutq aktlari shaklida tuzilgan. Biznes elektron pochta xati yoki ijtimoiy nutq akti "kechirim so'rash" bo'lib, u jo'natuvchi qabul qiluvchi va jo'natuvchi kutgan ziddiyatni yumshatishga qaratilgan nutq harakatining bir turi sifatida tushuniladi. UZR so'rash matnlarda tahlil qilinishi mumkin bo'lgan kommunikativ hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqola uchun ko'plab adabiyotlar va xarakterli misollar bilan tanishib chiqildi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida biz **Entschuldigung** (kechirim) va **Verzeihung** (uzr) otlari hamda **sich entschuldigen** (kechirmoq) va **verzeihen** (uzr so'ramoq) fe'llari bilan tanishib chiqdik. Kechirim so'rash nutq aktini yetkazish berish va tushunish uchun semantik-stilistik tahlil usuli hamda kontekstologik usullardan foydalaniladi. Birinchi qo'llaniladigan usul ish xatlaridagi leksemaning semantik jihatini o'rganishga asoslangan. Lingvistik birlikni o'rganish uchun ikkinchi usuldan foydalanildi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Nemis madaniyatida kechirim so'rashni o'rganish jarayonida uzr so'rashning turli jihatlariga, ya'ni madaniy, ijtimoiy va psixologik tarkibiy qismlarga e'tibor berish mumkin. Biz kechirim so'rash nutqiy aktini tadqiq etish jarayonida asosan semiotik tomoniga e'tibor berishga harakat qildik. Semiotikaning uchta asosiy jihatiga ko'ra kechirim so'rash jarayonida nutq texnikasini quyidagicha qisqartirish tavsiya etiladi: semantik, sintaktik, pragmatik. Kechirim so'rash pragmatikasi - qabul qiluvchiga nutq bilan muvaffaqiyatli ta'sir qilish maqsadida ish xatining mantiqiy tuzilishini o'rganadigan semiotikaning bo'limi hisoblanadi.

Nutq aktlari nazariyasi birinchi marta mantiqshunos olimlar D.Ostin va J.Searl tomonidan o'rganilgan. D.Ostin nutq aktini uchta aktning birligi deb ta'kidlaydi: lokatsion, illokatsion va perllokatsion. [1, 25]. Olim J.Searle esa nutq aktlarini quyidagi tasniflarga bo'ladi: ekspressiv, qat'iy, va'da, ko'rsatma va deklarativ. J.Searl salomlashish, tabriklash, minnatdorchilik bildirish, hamdardlik bildirish, kechirim so'rash va pushaymon bo'lishni ekspressiv nutqiy aktlar deb tasniflaydi [2, 152].

Bizning ushbu maqolamiz ekspressiv nutq aktlariga bag'ishlangan bo'lib, ular bir necha gaplar asosida hosil bo'ladi. Ekspressiv nutqiy aktlar sinfi xilma-xil ko'rinishga ega. Ekspressiv nutq aktida perllokatsion effekt ham, niyat ham birlashadi. Perllokatsion effekt deganda hissiy ta'sirni ta'minlash tushuniladi, niyat esa so'zlovchining qabul qiluvchiga bo'lgan his-tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ekspressiv nutqiy harakatlarni sotsial va inflektiv guruhlariga bo'lish mumkin. Bu guruhlar turli darajadagi ijtimoiy "marosimlar" bilan tavsiflanib, ularning ma'nosini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Ijtimoiy nutq harakatlarida hurmat elementi mavjud bo'lib, uning yordamida qabul qiluvchiga unga nisbatan hurmat munosabati haqida muntazam ravishda xabar beriladi [3, 133].

Tilshunos olim J.Lich fikricha, sherikga e'tibor berish, belgilarni aniq ifodalab ko'rsatishni prinsip deb ta'kidlaydi. Bu nutq aloqasida mavjud bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan va turli xil taktikalar va qoidalar yordamida amalga oshiriladigan nutq xatti-

## TILSHUNOSLIK

harakatlarining maxsus strategiyasi sifatida belgilanadi [4, 82]. Biznes nutqiy aktida sotsiativ sifatida kechirim so'rash nutq akti munosabatlarni tartibga solishning "yumshoq" usuli sifatida ijtimoiy mexanizmni "yaxshilash" vositasi bo'lib sherikka ta'sir o'tkazish sifatida qaraladi. Kechirim so'rash - bu qabul qiluvchiga yetkazilgan zararga javob berish deb tushuniladi. Muloqot jarayonida kechirim so'rash va uni qabul qilish nutq akti qoidalarga bo'ysunadi hamda kichik o'zgartirishlar bilan takrorlanadi. Buning natijasida kechirim so'rash gaplar tarzida davom ettiriladi.

Kechirim so'rash nutq akti pragmatika nuqtayi nazaridan ikkita qarama-qarshilikka ega bo'lgan kategoriya sifatida ifodalanadi. Bular: ichki kategorik va tashqi kategorik shakllar. Ichki kategorik shakl doimiy o'zgaruvchan xususiyatlar bilan ifodalanadi. Niyat va samimiylik doimiy belgilar bo'lib xizmat qiladi. Ichki shaklning o'zgaruvchan xususiyatlari - jo'natuvchi-qabul qiluvchi-presuppozitsiya ko'rinishida bo'ladi. Kechirim so'rash nutqiy vaziyatda presuppozitsiya tushunchasi katta rol o'ynaydi. Qabul qiluvchi o'z-o'zidan ma'lum yoki jo'natuvchiga aniq bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishi kerak.

Quyidagi misollarga e'tibor beraylik:

1. *Sehr geehrte Frau Anette, vielen Dank für die Einladung zur Konferenz. Das Thema interessiert mich sehr und ich hätte gern teilgenommen. Zum 14.7 bin ich allerdings beschäftigt im Ausland unterwegs. Bitte entschuldigen Sie kurzfristige Absage.*

*Hurmatli Anette xonim, konferensiyaga taklif qilganingiz uchun katta rahmat. Mavzu meni juda qiziqtirypdi va men bajonidil ishtirok etishni istardim. Biroq 14 iyul kuni men chet elda sayohatda bo'laman. Iltimos, rad javob berayotganim uchun kechiring.*

Bu misolda Anette xonim konfrensiyada bajonidil qatnashishga xohishi borligini bildiradi, ammo konfrensiyaga bora olmaslik sabablarini tushuntirib, uzr so'ragan.

Gapni yaratish uchun jo'natuvchi qo'sh ma'noni kiritish uchun lingvistik vositalardan foydalanadi. Bu esa mazmunning aniqligi bo'yicha bir xil bo'lmagan turli komponentlar yoki qatlamlarning paydo bo'lishiga olib keladi [5, 217].

Aytish mumkinki, kechirim so'rash nutq akti manipulyatsiyani o'rganish, qabul qiluvchining ongini nazorat qilish, ya'ni qabul qiluvchining qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir qilish, ziddiyatli vaziyatni yumshatish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

2. *Ich bitte um Entschuldigung für mein gestriges Benehmen während der Unerhaltung...*

*Kechagi suhbat davomida qilgan xatti-harakatlarim uchun uzr so'rayman...*

3. *Verzeihen Sie mich für die Verspätung. Ich kann früher nicht antworten, ich war krank.*

*Kech qolganim uchun meni kechiring. Men ertaroq javob bera olmadim, men kasal edim.*

Kechirim so'rash nutqning umumiy ma'nosi sifatida biror narsadan qattiq pushaymon bo'lish, achinish, vaziyatdan afsuslanish holatlarida ishlatiladi. Kechirim so'rash nutqiy aktini taktika yordamida ham qo'llanish holatlarini kuzatish mumkin. Nutq taktikasi - nutq strategiyasini amalga oshirish jarayonida o'ziga xos nutq harakati (qadam, buriqish, bosqich); nutq strategiyasini amalga oshirishning muayyan bosqichiga mos keladigan va ushbu bosqichning kommunikativ vazifasini bajarishga qaratilgan nutq akti (nutq akti yoki bir nechta nutq harakatlarining majmui) deb ataladi [6, 224].

Ilmiy manbalarga tayangan holda aytishimiz mumkinki, biznes nutqiy aktida quyidagi taktikalar aniqlandi: aybni tan olish, izoh berish, yarashtirish kabilar. Aybni tan olish taktikasi buyuboruvchi o'z xatosini aloqa jarayonida noto'g'ri xatti-harakatini anglab yetadigan jarayon hisoblanadi.

Izoh berish taktikasi jo'natuvchining shaxsiy tajribasini o'z ichiga olib, mavjud vaziyatdan afsusdaligini bildiradi hamda ziddiyatga olib boruvchi ob'ektiv sabablarga ishora qiladi.

Yarashuv taktikasi kelajakda oluvchi bilan mustahkam aloqa o'rnatishga yordam beradi [7, 22].

Nemis tili biznes nutqining semantikasida ikkita asosiy kechirim so'rash so'zi mavjud. Bular: sich entschuldigen (kechirmoq), Entschuldigung (kechirim) va verzeihen (uzr so'ramoq) Verzeihung (uzr) so'zlaridir. Nemis tilida Entschuldigung (kechirim) - huquqbuzarlik, bahona, Verzeihung (uzr) - qo'pol noto'g'ri xatti-harakatlar uchun kechirim so'rash sifatida izohlansa, Entschuldigung so'zi o'z aybini tan olish, iqror bo'lish ma'nosini anglatadi [8, 123].

Tahlil qilingan so'zlar va ularda ta'kidlangan taktikalarda eng ko'p uchraydigan so'z aybdorlik - Entschuldigung (kechirim) va sich entschuldigen (kechirmoq) so'zlari o'z semantikasiga

ega bo'lgan faol so'zlar sifatida foydalaniladi. Buning sababi, biznes nutqida yozma xatlar gunohni emas, balki aybni tan olishga moyilligi sababli ko'proq ishlatiladi.

Quyidagi jadvalda bu leksemalarning uzr so'rash nutq akti taktikasiga ko'ra qo'llanishi ko'rsatilgan.

*sich entschuldigen* (kechirmoq) *Entschuldigung* (kechirim) va *verzeihen* (uzr so'ramoq) *Verzeihung* (uzr) leksemalarining taktikada qo'llanilishi.

	Aybni tan olish taktikasi		Sharh berish taktikasi		Yarashuv taktikasi	
Entschuldigung/sich entschuldigen	219	43,88 %	151	30,21 %	30	25,91 %
Verzeihung/verzeihen	34	34,43 %	31	29,51 %	35	36,06 %

*sich entschuldigen* (kechirmoq) *Entschuldigung* (kechirim) leksemasi izohlash va yarashirish taktikasiga qaraganda aybni bo'yniga olish taktikasida ko'proq qo'llaniladi, bu 43,88 % ni tashkil etadi. Buning sababi, jo'natuvchi sodir bo'lgan voqea bo'yicha o'z aybini tan oladi. *verzeihen* (uzr so'ramoq) *Verzeihung* (uzr) leksemasi yarashirish taktikasida ko'proq uchraydi, bu 36,06% ni tashkil qiladi. Yarashuv taktikasi ko'pincha sodir bo'lgan voqea uchun kechirim so'rashni o'z ichiga oladi. Kechirim so'rash nutq aktida yozma xatning kengayish darajasi murakkab va sodda jumladan foydalanishda ifodalanadi, ularning yordami bilan jo'natuvchi uzrni qabul qilish darajasini maksimal darajada oshirishga intiladi. Jumla qanchalik sodda bo'lsa, qabul qiluvchi yozma xatning ma'nosini tushunishi va uzrni qabul qilishi osonroq bo'ladi.

4. *Entschuldigen Sie mir für Fehler in der Zugabfahrt.*

*Poyezd jo'nab ketishidagi xatolik uchun kechirasiz.*

Sodda gaplarning qarama-qarshi tomoni murakkab gaplardir. Murakkab jumladan foydalanib, jo'natuvchi tomonidan sodir bo'lgan voqeaning haqiqatini yashirgan holda kechirim so'raydi.

5. *Unsere Firma bringt Entschuldigungen vor, dass unser Vertrag zurzeit nicht erfüllt ist, weil die Werkzeugmaschinen kaputtgegangen sind.*

*Kompaniyamiz dastgohlari buzilganligi sababli bizning shartnoma hozirda to'la qonli bajarilmagan, buning uchun sizdan uzr so'raymiz.*

Adresat zavodda dastgohlar buzilganligi sababli bajarilmagan shartnoma uchun uzr so'raydi, lekin zavod xodimlari o'z mas'uliyatini o'z vaqtida bajarmagan. Biznes nutqida subyekt va obyektning rollari muhim sanaladi chunki biznes nutqining subyekt kompaniya direktori, obyekt esa biznes sheriklari, mijozlari va kompaniya xodimlari o'rtasida bo'ladi.

6. *In unserer Entschuldigung liegt die Antwort auf die Frage nach dem Grund für die Tatsache der Entstehung der unvorhergesehene Landung.*

*Bizning uzr so'rashimizda kutilmagan qo'nish sodir bo'lishining sababi haqidagi savolga javob yotadi.*

Semiotik jarayonni tushunishda kechirim so'rash nutqiy aktining amalga oshirilishi semantik, sintaktik va pragmatik qoidalar bilan belgilanadigan muhim vositalarining subyektiv to'plamidir. Nemis tilida kechirim so'rash nutqiy aktining xususiyatlarini o'rganish, tahlil qilish va ko'rib chiqish bir necha darajalarga ajratiladi. Bulardan asosiylari sifatida: semantik daraja, sintaktik daraja va pragmatik daraja kabilarni kiritishimiz mumkin.

### XULOSA

Nemis biznes nutqida uzr so'rashning afzalliklarini tahlil qilish nemis elektron pochta aloqasida qo'llaniladigan pragmatik, funksional-semantik, shuningdek, ma'lum ma'noda sotsiopragmatik xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi. Yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohazalar, dalillar orqali quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: kechirim so'rash nutq aktini tahlil qilish har qanday nutq turining materiali sifatida o'rganilishi mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Austin, J.I (1962). How To Do Things with Words: The William James Lectures delivered at Harvard University 1955. C- 247
2. Searle JR. The structure of illocutionary acts. In: Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge University Press; 1969.

## TILSHUNOSLIK

1. Газизов, Р. А. Коммуникативные стратегии реализации максим одобрения и симпатии в немецкой культуре [Текст] / Р.А. Газизов // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. – № 3. – Том 1. – 2010. – С. 21-30.
2. Бут, Н.А. Категориальный аппарат теории речевых актов в аспекте актуальных теорий [Текст] // Вестник ТГТУ, 2003. – Том 9. – С. 130-136.
3. Газизов, Р.А. Коммуникативный этикет в аспекте лингвистической вежливости (на материале немецкой лингвокультуры) [Текст]: монография / Р.А. Газизов. – Уфа: РИЦ БашГУ, 2017. – 196 с.
4. Баранов А.Н., Крейдлин, Г.Е. Иллокутивное вынуждение в структуре диалога [Текст] / А.Н. Баранов, Г.Е. Крейдлин // Вопросы языкознания. – № 2. – 1992. – С. 84-99.
5. Charles Boris Diyani Bingan. Begrüßung, Verabschiedung und Entschuldigung in Kamerun und Deutschland: Zur linguistischen und kulturkontrastiven Beschreibung von Sprechakten in der ... (Im Medium fremder Sprachen und Kulturen). Peter Lang Edition. –Berlin, 2010. – 102 s.
6. Der Deutsch-Knigge. Sicher formulieren, sicher kommunizieren, sicher auftreten. – Mannheim, 2008. –478 s.
7. Dittmann Jü. Konzeptionelle Mündlichkeit in E-mail und SMS. Bari Druck Text&Lit.doc Fassung. 10.08.2015. – 27 S.
8. Meyer K. Interkulturelle Pragmatik: Aufforderungen, Entschuldigungen und Beschwerden. Dissertation zur Erlangung. Dr. Philos. Hamburg, 2007. – 321 s.  
und Degrammatikalisierung in E-Mails. – Weingarten, 1997. – S. 86-104.